



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-aprel)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4522,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 81,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 10,6 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 23,5 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 20,4 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 20,0 % ga pasayish kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020 - yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4266,9 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,3 % ini tashkil etdi.






Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'inining hajmi 28,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 896,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 19,8 %), o'rta-quyi texnologiyali 455,2 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 10,1 %), quyi texnologiyali 2886,8 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 63,8 %) ni tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 109,7 ming tonna Shag'al (2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 22,7 foizga o'sgan), 26,2 ming tonna. Po'latdan quvurlar (52,3 foiz), 92,4 ming tonna Asphalt (67,3 foiz), 643,7 tonna Yigirilgan ip (91,7 foiz), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Shag'al, ming t.	89,8	109,7	19,9
Po'latdan quvurlar ming t.	17,2	26,2	9,0
Tamaki (segaret), mln.dona	3301,0	2999,0	-302
Asphalt, ming t.	55,2	92,4	37,2
Yigirilgan ip, t	335,8	643,7	307,9

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Xo'jalik sovuni, t	1942	1659	-283
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t.	9,12	5,1	-4,02
Paxta tolasi, ming t.	17,8	4,7	-13,1
O'simlik yog'i, t	3641,0	3254,0	-387

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)**



Tarkibida ikkita ta'minlovchi element—azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar

1,46
ming tonna



Aroq

52,9
ming l. 100% spirit




Xo'jalik sovuni

1659,0
tonna

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)



Uzum vinosi

870,8
ming l.Pivo (pivo ishlab
chiqarish
chiqindilardan
tashqari)**5633,0**
ming l.Yumshoq bug'doy va
spelta uni**58,8**
ming tonna.Birinchi navli undan
tayyorlangan bug'doy
noni (buxanka), og'irligi
600 g.**189,21**
tonnaTozalangan paxta yog'i
va uning fraksiyalari
(kimyoviy modifikatsiya
qilinganlaridan tashqari)**52,9**
tonna

Paxta tolasi


16,7
ming tonna




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta chigit



Paxta tiviti (lint)



Yigirilgan ip

27,69
ming tonna

1178,8
tonna

643,7
tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi

14,56
млн кВтч




Bug' va issiqlik suv
(issiqlik energiyasi)

27,4
ming Gkal.



Portlandsement

480,0
tonna



Po'latdan quvurlar

26,2
ming tonna

Asfalt

92,4
ming tonna

Shag'al

109,7
ming tonna

Tamaki (sigaret)

2999,0
mln donaYirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqaMineral va kimyoviy
o'g'itlar chiqarish**5,1**
ming tonna

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 200,4 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,7 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,8 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2563,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga pasayganligi va jami sanoatdagi ulushi 56,7 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-aprel oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,8 % dan 61,6 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,3 % (2019-yil yanvar-aprel oylarida 3,5 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 47,7 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 12,0 % ni, Urgut tumani 10,3 % ni, Jomboy tumani 5,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (95,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (99,8 %), Payariq (99,0 %), Bulung'ur (96,9 %), Nurobod (95,8 %), Samarqand (95,9 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mird. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	2563,2	100,0	95,0
Samarqand sh.	1222,3	47,8	94,9
Kattaqo'rg'on sh.	46,6	1,8	94,5
<i>tumanlar:</i>			
Samarqand	308,4	12,0	95,9
Ishtixon	39,0	1,5	94,6
Pastdarg'om	97,8	3,8	94,3
Payariq	25,6	1,0	99,0
Urgut	263,6	10,3	94,9
Tayloq	120,0	4,7	93,2
Oqdaryo	46,8	1,8	94,0
Jomboy	128,1	5,0	94,8
Narpay	65,5	2,6	94,1
Bulung'ur	84,9	3,3	96,9
Kattaqo'rg'on	59,5	2,3	95,3
Nurobod	8,9	0,3	95,8
Paxtachi	39,7	1,5	95,0
Qo'shrabot	6,5	0,3	99,8

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1714,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 37,9 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2020-yil yanvar-aprel mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Samarqand viloyati	4522,7	81,2
Samarqand sh.	2147,5	90,5
Kattaqoʼrgʼon sh.	110,4	101,9
<i>tumanlar:</i>		
Samarqand	273,4	55,3
Ishtixon	138,5	127,1
Pastdargʼom	161,6	109,0
Payariq	32,2	55,3
Urgut	356,6	85,1
Tayloq	154,0	94,2
Oqdaryo	93,8	121,3
Jomboy	540,4	64,2
Narpay	186,5	116,0

	2020-yil yanvar-aprel mldr. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Bulungʼur	59,7	83,7
Kattaqoʼrgʼon	131,4	128,5
Nurobod	32,8	74,3
Paxtachi	94,7	114,2
Qoʼshrabot	9,2	104,7




Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng koʼp ulushi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 47,5 %), Jomboy (11,9 %), Urgut (7,9 %), Samarqand (6,0 %), hamda Narpay (4,1 %) tumanlari hissasiga toʼgʼri kelmoqda.

Eng past koʼrsatkich esa Qoʼshrabot (0,2 %) hamda Nurobod va Payariq (0,7 %) tumanlariga toʼgʼri kelmoqda.




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi va ulushi
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)**

	Mahsulot hajmi (mlrd. soʻm)	Jamiga nisbatan ulushi %
Samarqand viloyati	1681,3	37,2
Samarqand sh.	531,2	24,7
Kattaqoʼrgʼon sh.	26,1	23,6
<i>tumanlar:</i>		
Samarqand	177,7	65,0
Ishtixon	25,9	18,7
Pastdargʼom	81,6	50,5
Payariq	32,0	99,4
Urgut	299,5	84,0
Tayloq	54,3	35,3
Oqdaryo	51,4	54,8
Jomboy	96,2	17,8
Narpay	16,6	8,9
Bulungʼur	46,9	78,7
Kattaqoʼrgʼon	108,8	82,8
Nurobod	30,3	92,5
Paxtachi	94,5	99,8
Qoʼshrabot	8,3	90,1



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1664,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qo'shrabot, Payariq, Nurobod, hamda Bulung'ur (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Paxtachi (99,2 %), Samarqand (77,7 %), Oqdaryo (75,5 %), Pastdarg'om (73,9 %), tumanlarda kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Kattaqo'rg'on shahri (21,6 %), Samarqand shahri (21,2 %), Ishtixon (18,9 %), Narpay (9,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 5999 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1424 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 23,7 %) Samarqand shahriga, 883 tasi (14,7 %) Urgut tumaniga, 541 tasi (9,0 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-aprel oyida viloyatda 495 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 58 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 11,7 %) Samarqand shahri va Urgut tumanida, 49 tasi (9,9 %) Pastdarg'om tumanida, 46 tasi (9,3 %) Samarqand tumanida tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi
Tel: (66) 235-06-80